

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VAO'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIIRLIGI

TOSHKENT ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI

ARXITEKTURA FAKULTETI

“Landshaft dizayni va interyer” kafedrası

5150900-“Dizayn” yonalishi bo'yicha(arxitektura muhitlari) bitiruv malakaviy
ishining

TUSHUNTIRISH XATI

Mavzu: Ko`p qavatli uylar oldidagi bolalar maydonchalarini
milliy uslubdagi dizyn yechimi

Bitiruvchi: Turidyeva Ziyoda Muratovna _____
(imzo)

Rahbar: Elmurodov Samidullo Salim o`g`li _____
(imzo)

Kafedra mudiri: Matniyazov Zafar Erkinovich _____
(imzo)

Toshkent -2018

TOSHKENT ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI

Arxitektura fakulteti dizayn yonalishi

8-14 Do' guruhi

“TASDIQLAYMAN”

“Landshaft dizayni va interyer”

kafedrası mudiri

“ _____ ” _____ 20 ____yil

Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha

TOPSHIRIQ

BITIRUVCHI Turdiyeva Ziyoda Muratovna

1. Mavzu: Ko`p qavatli uylar oldidagi bolalar
maydonchalarini milliy uslubdagi dizayn yechimi

2. “ 24 ” may 2018 - yildagi N 2/118 buyruq bilan tasdiqlangan

2.Diplom loyihasini bajarish uchun ma'lumotlar

Aholi turar joy hududining na'munaviy landshafti.

3.Tushuntirish xatida keltiriladigan ma'lumotlar:

a) Landshaft qismi _____

b) Badiiy –dizayn qismi _____

c) Atrof muhit ekologiyasi qismi _____

d) Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati _____

4.Grafik material ro'yxati (majburiy chizmalar va masshtab ko'rsatilishi bilan) _____

5.Diplom loyihasi qismlari bo'yicha konsultantlar

	Diplom loyihasi qismlari	Boshlanish nuddati	Tugallanish muddati	Imzo	Maslahatchini familiyasi
1	Landshaft				
2	Badiiy-dizayn				
3	Atrof muhit ekologiyasi				

6.Topshiriq berilgan sana _____

7. Tugallangan diplom loyihasini topshirish sanasi _____

Diplom loyihasi rahabari: Elmurodov Samidullo Salim o'g'li

M U N D A R I J A

bet:

1. Kirish.....	5-7
2. Arxitektura qismi.....	8-14
-Aholi yashash joylarini landshaft rejaviy tashkil etishning asosiy tamoyillari va vazifalari.....	
- Bitiruv malakaviy ish mvzusi – “Ko`p qavatli uylar oldidagi bolalar maydonchalarini milliy uslubdagi dizyn yechimi” arxitekturaviy loyihasi	
3. Badiiy-dizayn.....	15-27
-Kichik me`moriy shakllar va dekorativ qurilmalar	
-O`simliklarni guruhlash va kompozitsiyalarini yaratish	
- Bitiruv malakaviy ish mvzusi – “Ko`p qavatli uylar oldidagi bolalar maydonchalarini milliy uslubdagi dizyn yechimi” dizayn tavsifi	
4. Atrof muhit ekologiyasi.....	28-37
5. Xulosa.....	38-40
6. Foydalanilgan adabiyotlar.....	41
7. Ilova.....	42

KIRISH

“Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o‘z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o‘zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu - tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o‘zi tug‘ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanining tarixini bilishni istaydi... Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko‘rku-fayzini, mahobatini yo‘qotmagan osori-atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me‘morchilik va shaharsozlik san‘ati yuksak bo‘lganidan dalolat beradi” - degan edi Respublikamiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov

Darhaqiqat, bugungi kunda milliy madaniyat va san‘atimizning barcha sohalarini qayta jonlantirish va takomillashtirish, ilg‘or umuminsoniy qadriyatlarni tinmay o‘zlashtirib borish bilan birga o‘zligimizni, eng samarali milliy an‘analarimizni saqlab qolish va rivojlantirish masalalari respublikamizda qabul qilingan milliy g‘oya dasturiga ham kiritilgan. Madaniy merosimizning ana shunday sohalaridan biri, bu landshaft arxitekturasini hisoblanadi.

Aholining ko‘payishi va inson faoliyatining har tomonlama rivojlanishi yashash muhitning doimiy ravishda o‘zgarib turishi bilan o‘zaro bog‘liqdir. Yashash muhitini yaxshilashning landshaft arxitektura vositalari bilan yaxshilashning asosiy tajribalari bevosita insonning atrofigagina taalluqli bo‘lmay, balki barcha hududlarga, shaharning mahalliy hududidan boshlab mamlakat va sayyora miqyosigacha taalluqlidir. Bundan, landshaft arxitekturasining asosiy maqsadi atrof-muhitning ekologik, estetik va funksional sifatlarini uyg‘unlashtirish hisoblanadi

Xalqimizda azaldan obodlik, farovonlik, shaharsozlik an‘analari rivojlangan. Birgina Amir Temur davrida qurilgan mahobatli binolar, dunyoga dongi ketgan bog‘lar buning tasdig‘idir. Hozirgi kunga kelib esa bu obodonlashtirish ishlari nafaqat bog‘u-ro‘g‘larda balki binoning ichki qismida ham amalga oshirilmoqda.

Mustaqillik yillarida esa bu an'ana yanada takomilini topdi, hurlik va obodlik falsafasi bilan yo'g'rildi. Mustaqil taraqqiyot yillarida mamlakatimiz bo'ylab barpo etilayotgan keng bunyodkorlik ishlari, xalqimiz shuuridagi yaratuvchanlik kayfiyatiga bugun dunyo havas bilan boqmoqda.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyo arxitekturasida va landshafti olamida inson ongi yetmas darajadagi o'zgarishlar hayratlanarli albatta. Aqlli uylar, aqlli ko'cha va bog'lar, interyerdagi bog' va qavatlararo qishki bog'lar nafaqat hayratlanarli, balki insonlarning dam olishi, ko'zi quvnab doimo yoshlik nafasini his etib turishi hamda insoniyatning sog'ligi uchun asosiy vazifa bo'lib xizmat qiladi.

Ko'cha va xiyobonlar, sayilgo'hu mahobatli inshootlar, qolaversa uylar atrofidagi landshaft dizaynining o'ziga xos go'zal manzaralari kattayu kichikka birdek xush kayfiyat, estetik zavq bag'ishlaydi. Albatta, shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda odamlar ongu shuurida ham mutassil o'sish o'zgarishlar yuz beradi. Inson borki, yanada yaxshi yashashga, zavqli hayot kechirishga intiladi. E'tibor beradigan bo'lsak, ko'pchilik hovlisida turfa xil gullar ekadi, tartib bilan ko'chat o'tqazadi, bejirim yo'laklar hosil qiladi. Beixtiyor bularni ko'rgan kishining bahri dili ochiladi.

Tabiiyki, avvallari bu jihatlarga unchalik ham e'tibor berilmasdi. Bugungi kunda esa tamomila boshqacha. Negaki, turmush-tarzimiz tobora yaxshilanib borayapti. Dunyoda bo'layotgan voqeliklar, o'zgarishlardan bohabarmiz. Zamonaviylik va milliylik uyg'unlashgan holda shaharu qishloqlarimiz kundan-kunga chiroy ochib bormoqda. Bu jarayonda oddiy ko'kalamzorlashtirish yoki obodonlashtirishdan farqli o'laroq, yuqori did, o'ziga hos ma'no-mazmun kasb etadigan landshaft dizaynini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Landshaft dizayni bo'yicha mutaxassis nafaqat dizaynni, estetikani, balki u bog'bondan farqli o'laroq, hudud tuproq sharoitini, o'simlik holatini

yaxshi bilishi va eng muhimi, ishga ijodiy yondashishi zarur, - deydi Toshkent arxitektura-qurilish instituti professori Lyudmila Adilova. Tarixiy tajribalarga tayanish har bir detallni mohiyatan chuqur o'ylab joylashtirish, iqlim-sharoitini hisobga olish muhim. Ana shunda, ko'zlangan natijaga erishiladi.

Darhaqiqat, xalqimiz farovonligi, turmush sharoitini yanada yaxshilash yo'lida mamlakat miqyosida olib borilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarining yanada fayzli, shukuhli bo'lishida landshaft dizayni sohasining o'ziga hos o'rni bor. Shu bois, soha rivoji, bu borada olib borilayotgan keng qamrovli ishlar kayfiyatiga, yurtimiz ko'rkiga-ko'rk bag'ishlashi shubhasiz.

ARXITEKTURA

BO'LIMI

Konsultant: _____

Ma'sul rahbar: Elmurodov S.S

Bitiruvchi: Turdiyeva Z. M

1.1. landshaft -rekreatsion zonalarini tashkil etish prinsiplari

Ko`p qavatli turar joy binolarining hududini me`moriy-landshaft va rekreatsion tashkil etishda sifatiga erishish uchun turar joylarni landschaft - rekreatsion tashkil etish bosqichlarining quyidagi ketma -ketligiga rioya qilinishi zarur:

-Loyihadan oldingi bosqichida, qurilish tashkil etish va aholining ijtimoiy - demografik tuzilmasini (bolalar, yoshlar, kattalar va qariyalar) tarkibi va nisbatini tahlil qilish, aholining zichligi, dam olish turlari va shakllariga bo`lgan ehtiyojlarini, tabiiy sharoitlar xususiyatini, loyihalanayotgan hududning sanitariya - gigiyenik holati va ekologiyasini hisobga olish;

-loyihalash bosqichida dam olish turlari va mezonlari bo`yicha hududni landschaft -rekreatsion zonalash va landschaft elementlari dam olish maydonchalari, suv qurilmalari, o`simliklar va tashqi muhitni obodonlashtirish shakllarini me`moriy -rejali tashkil etish masalaalri yechilishi zarur. Ko`kalamzorlashtirishda o`simliklarni tanlash va ekish ochiq maydonlar muhitni shakllantirishning funksional, sanitariya – gigiyenik va estetik omillarni va landschaft tashkil etishning an`anaviy uslublaridan foydalanish imkoniyatlarni hisobga olgan holda bajarilishi kerak.

Landshaft – rekreatsion muhitlarning barcha sanab o`tilgan elementlari turar joy qurilishi – landshft landschaft muhiti yaxlitligini shakllantirishda o`simliklarni to`g`ri tanlash va yashil kompozitsiyalar tashkil etish yetakchi ahamiyatga ega bo`ladi.

Turar joylar muhitidagi aholi guruhlarining dam olishini ta`minlashda kichik yoshdagi ( 0-4 yosh) va maktabgacha yoshdagi bolalar (5-7 yosh) kichik yoshdagi (8-10 yosh) va o`rta yoshdagi o`quvchilar (11-14 yosh), o`qiyotgan (15-22 yosh) va ishlayotgan yoshlar (23-35 yosh) mehnat qilish qobiliyatiga ega aholi

(36-60yosh) va nafaqaho`rlarning (60 va undan ortiq yosh) dam olish hududlarini funktsional zonalariga ajratishni ko`zda tutish zarur, chunki aholining har bir guruhi o`z vaqt byudjetiga ega bo`lib, turar joy tuzilmasi hududida dam olishning tarkibi va mazmuniga o`ziga xos talablar qo`yadi.

Ko`p qavatli turar joy guruhlari hududida aholi dam olishi uchun mo`ljallangan maydonchalaridan tashqari har xil maqsadlarga yonaltirilgan xo`jalik maydonchalarini ham loyihalash zarur (kirlarni quritish, gilam qoqish, axlat yig`ish iurilmalari)

Turar joylar hududining har xil maqsadlarga mo`ljallangan maydonlar me`yorlari

T/r	Maydonchalarning turlari	Me`yorlar kv.m/kishi
1.	Bolalar maydonchalari	0,55-0,7
2.	Kichik yoshdagi o`quvchilar uchun	0,2
3.	Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun	0,35-0,5
4.	Sport maydonchalari	1,00
5.	Dam olish maydonlari	0.2
6.	Xo`jalik maydonlari	1.00
7.	Yo`laklar	10%
8.	Ko`kalamzorlashtirilgan maydonlar	30%

Ba`zi hollarda maktabgacha va kichik yoshdagi, ya`ni 9-13 yoshgacha maktab o`quvchilari uchun umumiy kompleks maydonchalar qo`llash mumkin. Bunday maydonchalarning o`lchamlari 350-400 m bo`ladi.

1.2.Aholi yashash joylarini landshaft rejaviy tashkil eishning asosiy tamoyillari va vazifalari.

Shahar va qishloq aholi punktlarining ko`kalamzorlar tizimini loyihalash va tashkil etishda quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilinishi zarur:

1)Aholi punkti hududi bo`ylab yirik yashil ko`kalamzorlarni teng maromda taqsimlash va joylashtirish. Mazkur talab eng avvalo umumiy foydalanuvchi ko`kalamzorlarga taalluqlidir;

2) yashil ko`kalamzorlar tizimining aholi punkti hududi bo`yicha uzluksizligi va uzviyligini ta`minlash. Ushbu tamoyil bog` va parklarning yashil hududini bir-biriga ko`kalamzor xiyobonlar, ko`chalar, trotuarlar, skverlar, maydonlar va sohillar yordamida bog`lab, ularning yaxlit va uzluksiz umumiy ko`kalamzorlar tizimini yaratish orqali amalga oshiriladi;

3) aholi punkti ichki va tashqarisida joylashgan ko`kalamzor yashil hududlarni bir-biriga bog`lash va ularni yagona kompleks yechimiga keltirish. Mazkur talabga aholi punkti ichidagi yashil hududlarini funksional va kompozitsiyaviy jihatlaridan uning tashqarisida joylashgan ko`kalamlar va manzaraviy bog`-rog`lar hududiga qo`yib yuborib seliteb hududining ichigacha kirib boruvchi o`ziga xos yashil “ponalar, belbog`lar” ni shakllashtirish orqali erishiladi.

Ko`kalamzorlar tizimini tashkil etishda quyidagi uch asosiy vazifaning hal etilishi zarurdir:

-funksional vazifa – turli maqsadlarga mo`ljallangan ko`kalamzor hududlarni tashkil etish, shu jumladan, aholining qulay dam olishi uchun bog` parklar va boshqa yashil muhitlar tizimini yaratish;

-sanitariya – gigiyenik vazifa – shahar muhitining ekologiyasini sogʻlomlashtirish va mikroiklimni yaxshilash;

-meʼmoriy badiiy vazifa – badiiy jihatdan yaxlit va estetik jozibador boʻlgan arxitekturaviy – landshaft muhitini tashkillashtirish va shakllantirish.

Atmosfera havosini qoʻriqlash aholi joylarida havo havzasining holatini baholash real konsenratsiyalarning yoʻl qoʻyilgan chegara doirasi bilan solishtirish orqali amalga oshiriladi. Aholi yashash joylari havosining ifloslanishi toʻrtta bosqich boʻyicha baholanadi: yoʻl qoʻyiladigan, kuchsiz, oʻrtacha, kuchli. Salbiy natijalar masshtabi (oʻrmonlar halokati maydoni, tabiiy va madaniy biotsenozlar hosildorligining pasayishi) geotizimlarning havo ifloslantiruvchilariga chidamliligiga bogʻliq boʻladi. Geotizimlarning chidamliligi, birinchi navbatda, oʻsimliklarning chidamliligi bilan aniqlanadi, chunki iflos havoning taʼsiri, avvalo, ularda kuzatiladi. Antropogen taʼsirning taqsimlanishini va geotizimlarning ifloslantiruvchilarga chidamliligini solishtirish muammoli areallar va muammoli holatlarni aniqlash imkonini beradi. 10 Havo havzasi muammoli holatini va uning geotizimning boshqa komponentlariga taʼsirini aniqlash holatni yaxshilashga qaratilgan tadbirlar tizimini shakllantirish imkonini beradi. Faol tadbirlarga quyidagilar kiradi: – texnologik – yoqilgʻini yaxshilash, yangi texnologiyalarni qoʻllash, yopiq sikllar, chiqindisiz va kam chiqindili ishlab chiqarishni tashkil etish va h.k.; – sanitariya-gigiyenik – gazlarni fizik-kimyoviy tozalash usullari, chiqindi va suyuq aralashmalarni ajratib olishning fizik usullari. Nofaol tadbirlarga balanda quvurlar oʻrnatish va sanitar himoya qismlarni tashkil etish kiradi. Tarhiy tadbirlar muhim ahamiyatga ega, ularga quyidagilar kiradi: – ifloslantiruvchi manbalarni va aholi yashaydigan qismlarni oʻzaro toʻgʻri joylashtirish, bunda hududiy ifloslanish potentsiali boʻyicha qismlarga boʻlish va tabiiy komplekslarning havo ifloslanishiga chidamliligini hisobga olish; – muhandislik-ekologik qismlarga boʻlish asosida hududiy foydalanish rejimini oʻrnatish.

**Mikroyondagi bolalar maydoning yo'l tizimi quyidagilarni o'z
ichiga oladi:**

-maydonning butun zonasini qamrab oluvchi, aylanma marshrutli, 6-8m kenglikdagi asosiy kirish yo'li;

-1,5...2,0 m kenglikdagi zona ichidagi yo'laklar;

-bolalar o'yin zonalarining alohida maydonlaridagi tor yo'laklar.

Bolalar maydoni va yo'laklari uchun eng yaxshi qoplama, bu shag'al toshli , rezinali, markaziy kirish oldida, tomosha maydonchalarida figurali sement - betonli.

Kichik me'moriy shakllar, haykalchalar, yorqin gulli bazatishlar quvnoq kayfiyat yaratishi kerak. Landshaft loyihalashda yoshlar uchun moslamalar, qurilmalarining kichiklashtirilgan masshtablari, binolarning g'ayrioddiy va ko'rkamligi harakterli.

Landshaft (nemischa Land-yer, Schaft-manzara) muayyan bir geografik hududga xos bo'lgan tabiat manzarasi (yer yuzasi, relyefi, tuprog'i, o'simlik va hayvonot dunyosi, suvi, iqlimi)ni belgilovchi umumiy tushuncha. Landshaftning bir-biridan farq qiluvchi tabiiy turlari mavjud. Masalan, tog' landshafti, dasht-cho'l va sahro landshafti, tundra landshafti, okean, dengiz landshafti va boshqa landshaftlar. Bularning barchasi tabiiy geografik landshaftga kiradi. Biroq madaniy landshaftlar guruhi ham mavjud. Ularga inson qo'li va zakovati bilan yaratiladigan barcha landshaftlar, masalan, me'moriy landshaft, qishloq xo'jalik yerlari landshafti, shahar landshafti, bog'-park landshafti va h.k. kiradi.

Landshaft arxitekturasini. Tashqi ochiq muhitlar: shahar maydonlari, turli-tuman istirohat bog'lari va parklar, xiyobonlar, bulvarlar, piyodalar ko'chalari, sohillar, muhitni ko'kalamzorlashtirish va unga oro berish san'ati namunalari landshaft arxitekturasining obyektlaridir Bugungi kunda landshaft arxitekturasining obyektlariga nafaqat tashqi ochiq muhitlar, balki ichki yarim ochiq va yopiq muhitlar: binolarning ichkarilari, "qishki bog'lar", vestibyullar ham kiradi. Landshaft arxitekturasini, shuningdek mavjud tarixiy bog'larni va ko'kalamzorlarni qayta tiklash va ta'mirlash ishlari bilan ham shug'ullanadi.

Landshaftlar hududining katta va kichikligiga qarab mikro va makro landshaftlarga bo'linadi:

mikrolandshaft – o'simliklardan sun'iy yaratilgan va joy relyefi, suv havzalari bilan bog'liq bo'lgan mo'jaz manzaraning ko'rinishi.

makrolandshaft – bu katta va ulkan geografik hudud yoki mintaqaning tabiiy landshaftidir.

Badiiy dizayn

BO'LIMI

Konsultant: Maxkamov J.S

Ma'sul rahbar: Elmurodov S.S

Bitiruvchi: Turdiyeva Z. M

2.1 Kichik me'moriy shakllar va dekorativ qurilmalar

Landshaft arxitekturasida obyektlaridagi kichik arxitekturaviy va dekorativ shakllar - bular badiiy bezatish elementlari bo'lib, turli xil funksiyalarni bajarishi mumkin. Ular umumiy stil bilan birlashtirilgan, bezatadigan, xilma-xillik yaratadigan, obyektlarni funksional vazifalariga, ramzlarining jilodorligini beradigan va yana, maydonchalarining u yoki bu zonalariga yo'naltirish axborotini berishi mumkin. Me'moriy elementlar va inshootlar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- dekorativ me'moriy elementlar - favvoralar, haykallar, vazalar, pergolalar va trelyajlar;
- g'oyaviy-siyosiy mazmundagi me'moriy elementlar -monumental yodgorliklar, byustlar;
- tinch dam olish uchun — ayvonchalar, tomosha maydonchalari,
- faol dam olish uchun — bolalar maydonchalari, badan tarbiya maydonchalari,

Kichik formalarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri, ushbu hududning yashil o'simliklari, relyef va landshaft kompozitsiyalarining formalari bilan uyg'unligiga erishishdir. Ular atrof-muhitga nomutanosiblikni olib kirishi kerak emas, arxitekturaviy-landshaft kompozitsiyasi stilistikasiga to'la javob berishi kerak. Kichik arxitekturaviy shakllar ixtiyoriy arxitekturaviy shakllarni — kirish qismidan, pavilyon, ratonda, galereya, supalar (besedka), bolyustradalar, fontanlar yoki ko'priklar poy vaza, fonarlar, panjarali to'siqlar, o'rindiqlar va boshqa ko'rinishlarda aks ettirishi mumkin.

Haykaltaroshlik asarlari san'at asari bo'lib, xuddi fontandek, ko'kalamzorlashtirilgan joylarni bezatadi, xilma-xillik kiritadi, boyitadi. U yirik va kichik bo'lishi mumkin va kayfiyatga yaxshi ta'sir etishi, odamlarda qiziqish uyg'otib ularga chiroyli his-tuyg'ularni ato eta oladigan bo'lishi kerak. Haykaltaroshlik asarlari - antik, klassik, turli xil tematik sahna asarlarini aks ettirishi, hattoki abstrakt holatlarda bo'lishi ham muhim. Oxirgisini dekorativ-amaliy san'at yoki erkin ijodiy yo'nalishga bog'lash mumkin.

Vazalar ham haykaltaroshlik asarlaridir. Ular bolyustradalarda, ayvonchalarda, maydonchalarda yoki maysazorning markaziga joylashtirilishi mumkin. Parklarni bezatilishi uchun yuqori badiiy namunalarni tanlanishi maqsadga muvofiq.

Kursilar — bog'-park maydonining, skverlarning, xiyobonlarning, maydonlarning va boshqa obyektlarning zarur elementi. Ular alohida, guruhlar bo'lib, aylana bo'ylab yoki daraxt atrofida turishi mumkin. Kursilar odatiy geometrik formalardan to erkin formalargacha bo'lgan kutilmagan ko'rinishlarga ega bo'ladi.

Stendlar, yodgorlik toshlari, instolatsiyalar - boshqa elementlar kabi yashil maysalarga monand bo'lib unga bo'ysunishi kerak.

Gazon holat bu boshqoqli yoki yemi qoplab turuvchi o'simliklardan tashkil topgan chim qoplamasi. Ishlatilish xarakteriga qarab boshqoqli gazonlarning quyidagi turlari tarqalgan:

parter gazon (gilam) — past quyuq, bo'lgan bir tekis yashil gilam. Bu tur muntazam kompozitsiyaning asosiy qismlarida, fontan, haykallar guruhlarini, dekorativ hovuzlar atrofida yaratiladi.

dekorativ gazon uzoq yillik, soyaga chidamlilik, quruq-bardoshh'lik, mexanik zararlarga chidamlilik xususiyatlariga ega.

Bu yerda o't bir tekis bo'lishi lozim, shuning uchun uni doim kaltalab turish kerak

o'tloq gazoni o'zida har xil balandlikdagi o'tlar yig'ifl-disini mujassam etadi. Oddiy o't o'rildigan maydonlardan bu yer turli ranggin jihatlar bilan ajralib turishi lozim.

mavritaniya gazoni bu turlarga ajratishda alohida ajralib turadi. Mavritaniya gazoni faqat urug'ning dastlabki o'sib chiqish davrida muntazam, keyinchalik talabga ko'ra sug'oriladi.

sport gazoni muayyan maqsadga mo'ljallanadi (sport musobaqalari, qiyaliklarni mustahkamlash uchun). Bunday turgatepkilash, ezilishga, gorizontal siljishlar va boshqa ta'sirlarga chidamli mustahkam o't tanlanadi. Ular doimiy parvarish talab qiladi, chunki doimiy kesish va sug'orish ildizining mustahkamlanib, quyuq o'sishiga yordam beradi.

O'simliklar mavzusini yakunlashdan oldin quyidagilarga urg'u berib o'tish joyiz:

1. Loyihalashga o'tishdan oldin, boshlovchi yog'och navlari ajratilib olinadi, ularni o'z navbatida balandligi bo'yicha, teksturasi bo'yicha, ekologik talablari bo'yicha ajratilib olinadi.
2. Har bir tanlangan asosiy daraxt navlari guruhiga bog'liq bo'lgan daraxtlar, butalar, gulli yoki o'tli o'simliklarni shox-shabballari, barglari rangi, teksturasi va o'sish shart-sharoitlariga ajratilib tanlanadi.

Suv va suvli kompozitsiyalar. Suv bu eng boy va xilma-xilligi bo'yicha samarador bog' va park kompozitsiyalarini taklif etadigan tabiiy material. Suvning maftunkorligini o'ziga xos dekorativ xususiyatlari bilan insoniyatga katta emotsional ta'sir ko'rsata olishi bilan tushuntirib berish mumkin. Har qanday suv qurilmasini turli xil ranglarga ega bo'lgan tasvir palitrasi bilan solishtirib ko'rish mumkin. Bu xislatlar suvning tabiiy xususiyatlari, oquvchanligi va rangsizligi, har

qanday shaklga kira olishi va rangini o'zgartira olishi bilan, atrofidagi jismlarning tasvirini aks ettira olishi hamda ovoz chiqarishi bilan bog'langan. Suvni landshaftning badiiy kompozitsiyasida element sifatida qo'llashda, uning barcha tabiiy xususiyatlarini to'laligicha va eng yuqori estetik did bilan namoyon etishga harakat qilish lozim.

Suvning sovuqlik, oquvchanlik, o'zgaruvchanlik, aks qaytarish qobiliyati, sochilishi va ovoz chiqarishi tabiiy xususiyatlaridan, turli xildagi landshaft elementlarini barpo etish imkoniyatini beradi.

Bog' va parklarning landshaftini tashkillashtirishda suvning — buloq, jilg'a, kaskad, basseyn, fontan, sharshara, daryo, ko'l va hovuz shakllari ishlatiladi.

Bu asnoda suv holatining 2 shakli hisobga olinadi — dinamik (harakatlanuvchan) va statik (tinch)

Shu sababli landshaftning tuzilishi buloq, jilg'a, sharshara, kaskad, fontan , bular qatorida daryo va dengiz tarkibida qo'llaniladi.

Insonga emotsional ta'sir etish darajasi suvning hajmi va qudrati, balandligi va tushish tezligiga, oqimning tasviriga va suv inshootlaridagi suvning jildirab oqishiga bog'liq. Agar loyihalanayotgan hududda kerakli hajmdagi va qudratdagi suv havzasi mavjud bo'lsa, u holatda asosiy masala uni dekorativ xususiyatlarini kuchaytirish va kamchiliklarini berkitish bo'ladi.

Zamonaviy landshaft obyektlarida yoritish usullari juda turli tuman bo'lishi mumkin. Hududni yoritishda uchta usulni ajratish lozim:

- Funksional dekorativ va aralash

Funksional yoritish piyoda yurishiga mo'ljallangan marshrutlarga va kunning qorong'i vaqtida yo'lining o'tib ketadigan qismiga mo'ljallangan.

Aralash yoritish yuqorida keltirilgan funksialarni yechishga ijozat beradi.

Landshaft obyektlarida dekorativ yoritgich eng kop ahamiyatga egadir. Yaxshi bajarilgan dekorativ yoritgich yordamida yaxshi ko`rinish effektini va katta hayajonlilik harakatlariga erishish mumkin. O`simliklar va gularning pastdan yoritilishidan foydalanib va yorug`likni maxsus qoplash aks ettirilishi, qiziq kechki stenariyni yaratish mumkin.

Yoritgichning xususiyati yorug`likni muntazam yo`naltirish – predmetlarni lampadan ko`zni qamashtiruvchi yarqirashi yo`qligida yaxshi ko`rinishi, yo`l bo`yiga yorug`ligi kamroq yoritgichlarni joylashtirish kerak.

Qoldiqlarni tashlovchi idish – birinchi o`rinda manfaat ko`rish vazifasiga ega. Asosan o`rna ikki qismdan iborat -sirtqi ko`rinishi va axlat yig`ib olish. O`rnalarning tashqi ko`rinishini matalldan, sopoldan, betondan, abessementdan, yog`ochdan, trubalardan qilish mumkin. Hozirgi kunda yog`och materialidan foydalanish ommalashgan. o`rnalar asosan turli maqsaddagi hiyobonlarda, bog` yonbag`rlarida, ta`lim muasalarida, odam gavjum skameykalarning oldiga qo`yiladi.

2.2 O`simliklarni guruhlash va kompozisiyalarini yaratish

Qishki bog`larni dekorasiyalash maqsadida o`simliklarni joylashtirish va guruhlash usullari xiyla katta tanlash imkoniyatiga ega. Dam oluvchilar uchun barcha afzalliklar qishki bog` muhitining o`lchamlariga, uning funksional maqsadlariga, tashqi muhitdan ajratuvchi oynavand chegara to`sinlari va eshiklarni turish holatlariga bog`liqligini muhim asoslaridan hisoblanadi. Bunda qishki bog` muhitida o`simliklarni guruhlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O`simliklarni guruhlashga quyidagicha misol keltirish mumkin:

Soliter – bu yakka o'simlik, qaysiki, unga alohida diqqatni qaratish maqsadida, boshqa o'simliklardan uzoqroqda joylashtiriladi. Yakkaxon o'simliklar, aniqsa e'tibor bilan tanlanishi lozim, negaki u qishki bog' muhitining qolgan elementlari bilan raqobatlashuvchi yirik dekorasiyalovchi vosita hisoblanadi.

O'simlik, soliter sifatida quyida qayt etilayotgan belgilarini hattoki, bittaginasini bo'lsa ham tanlanadi:

- katta o'lcham;
- ko'rkam, asl shakli;
- yaproqlaridagi noodatiy qiziqarli ranglar;
- o'simliklardagi dekorativ gullashning mavjudligi

Solitera uchun tuvak yoki qutini tashqi ko'rinishiga alohida talablar qo'yiladi. Ba'zida soliter o'simliklarni katta o'lchamliklari qishki bog'lar muhitlariga mos bo'lishi uchun yoki ochiqlik hosil bo'lgan joyni to'ldirish uchun foydalaniladi.

Solitera kompozisiya sifatida: fikuslar, chigal palmalar, palmalar, lianalar(uzum, tunbergiyu, filolendrom, xoyyu, monstera) va boshqa tur vakillaridan foydalaniladi. Ba'zi ampelniy o'simliklarni(kolumneyu, xlorofitum, zigokaktus), buta yaproqli o'simliklarni(kaladium, begoniya, kordilinu, kodiyeum) hamda turli dekorativ gullamaydigan o'simliklarni(gortenziya, siklaman, pelimlik) guruhiga kiritish mumkin.

Agar barcha o'simliklar bir xil balandlikda bo'lsa, unda oxirgi qatordagilari past relyefli xolatda joylashtirilgani maqsadga muvofiqdir. Qishki bog' uchun kerakli balandlikni aniqlab, tuvakli o'simliklar tagiga maxsus tag relyef landshaftlarini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Guruhli kompozisiyalarni gorizontol holatda bo'lishi shart emas. Ba'zida maxsus o'rindiqlar yon atroflaridagi vertikal kompozisiyalarga muvofiqiyatli ko'rinish bag'ishlaydi. Vertikal guruhlarini yaratish uchun loaqal bitta ampell

o'simlik yoki lianadan albatta foydalaniladi. Vertikalli joylashtirish odatda, qishki bog' xollari, burchaklarini yoki xonalarni ikki qismga ajratish uchun rasmiylashtirishda qo'llaniladi. Bunday guruhli kompozisiyani yorug'lik yaqin joyga ya'ni deraza oldiga chiroyli qilib joylashtirish mumkin.

O'simliklar kompozisiyalarini yaratish

Manzara(peyzaj) burchagi. Qishki bog'ning manzara(peyzaj) burchagining keng imkoniyatlari mavjud. Bu aslida landshaftdir, ammo miniatyuraviy kichik hajmdagi ko'rinishidir.

Qishki bog'ning mazkur burchakli muhitlarida faqatgina jajjigina o'simliklarni emas, balki, shular bilan birga suv havzalarini, turli qurilishlarni va hatoki, hayvonlar qomatlarini qo'llash mumkin. Tabiiyki, ya'ni landshaftli kompozisiyani yaratish va uning parvarishi dekoratsiya qilinayotgan qishki bog' muhitining o'lchamlarini shakllantirishda ma'lum shartlar talab etiladi.

Manzara(peyzaj) tog'li, suvli yoki cho'l - sahrolik bo'lishi mumkin. Masalan, keng baland bo'lmagan tuvakni olib unga ya'ni hosil bo'lgan suv havzasiga uning balandligiga teng bo'lgan, katta bo'lmagan idishni joylashtirish lozim. Suv havzasidan masofada yirik bo'lmagan toshlardan (burchaklilari maqsadga muvofiqdir) past - balandlik qurish zarur, suv havzasi va past - balandlikni oralig'idagi muhitni keramzit, qum, mayda shag'al bilan to'ldirish kerak.

O'simliklarni ildizi kengligi katta bo'lmaganlarini tanlanishi maqsadga muvofiqdir: sedum, ekeveriya, kaktus(yirik bo'lmagani keramzitli toshli sahroda juda chiroyli ko'rinish beradi) hamda ildiz otgan begoniya va tradiskansiy yoki asparaguslar va poporotniklar juda mos keladi. Qachon suv havzasi o'rniga qishki bog' uchun fontanlar ishlatilsa, ammo qachonki, o'simlik namlikni sevuvchi bo'lsa(hech qanaqa kaktuslarsiz) bunday kompozisiyalar juda samarali ko'rinish beradi.

Yashil ko'rgazma(vitrina). Qishki bog'lardagi oynavandlik chekka nuqtalar uchun o'ziga xos yorug'likni xush ko'ruvchi o'simliklarning dekorativ manzaraviy ko'rinishini yaratish mumkin. Oynavand qismning ichki tarafidan butun oynali eshikli qo'shimcha qismni o'rnatish zarur. Natijada tashqi oyna ichki eshik oralig'ida kengligi, deraza oldi muhitiga teng bo'lgan terrarium hosil bo'ladi. Bunda unga qishki bog' o'simliklariga taglik o'rnatish, devor tuvaklarini mahkamlash va savatlarni osib qo'yish mumkin. Bunday terrariumda o'simliklarni parvarishlashni zaruriy shartlarini saqlab turish uchun shamollatish, tungi yorug'lik lampalari, suv nasoslarida isitkich va soyalashtirish haqida g'amxo'rlik qilmoq zarur.

Vertikal ko'kalamzorlashtirish. Kichik qishki bog' burchaklari uchun o'simliklarni vertikal joylashtirilishi juda qulaydir, qaysiki, katta muhitlarni alohida hududlarga bo'lishda ham foydalaniladi.

Tez o'suvchan chirmashuvchan lianalar(setkreaziya, sisus, fikus va boshqalari) o'simliklardan iborat jonli devorlar, hamda dekorativ panjarali chirmashuvchan gullarni o'rnatilishi qishki bog' muhitlari hamda foye va xollarni bezash uchun qo'llaniladi. Ko'pchilik chirmashuvchan o'simliklar doimiy 20⁰ S atrofidagi haroratli yorug' muhitni xush ko'radi. Qishki bog'larni ko'kalamzorlashtirish uchun passifolaro(chiroyli gullovchi azaliy - liana) va titrastigma(liana, keng muhitlar uchun ko'p yorug'likni, joyni va havoni talab etadi). Soyaga chidamli o'simliklarga plyush, yashil setkreaziya, tradeskansiyalar, chirmashuvchan fikuslar, shilimshiq filodendrol, sisus (hashamatli yaproqli dekorativ liana)lar kiradi.

Dekarativ yaproqli lianalar shartli ravishda uch guruhga bo'linadi:

- yaproqli plastinkalarini ajoyib ko'rinishi bilan - roisussus, montera, plyush, fatsxedera;

-olachipor yaproqli va ko'rkam bo'yoqlilar-oltin tusli epiremnum, sathlangan sdindapsus, shaforanli qalampir, filodendron;

-ikkala alomatni o'z ichiga oluvchi - singoniumlar, chirmovuq gullarni ola - bo'la ko'rinishlari, monsterlar, fatsxederlar, filodendronlar, lianalarini qo'shish mumkin.

Vertikal kompozitsiyalarni yaratishdagi asosiy tavsiyalar:

- bir tusdagi qishki bog'da lianani bir necha turlaridan foydalanish yaxshi;
- dekorativ yaproqli o'simliklar uchun muhit erkin tusda bo'lmog'i lozim. Ular olachipor tusda muvofaqiyatsiz nazarga tushadi;
- mayda yaproqli o'simliklarni yirik yaproqlilari bilan aralashtirish tavsiya etilmaydi. Bir xilli turlar mayda yaproqlari, boshqa turlarni yirik yaproqlilari tusida ko'rkamligini yo'qotadi. Baquvvat monsterlar, fatsxederlar va filodendronlar xushbichimliroq singoniumlarni, qalampirlarni va roisissuslarni qisish qobiliyatiga ega;
- lianalarini yaproqlarini tozaligi haqida doimo g'amxo'rlik qilish lozim, negaki, ular e'tiborni qaratadi va dekorativ yuklamani o'ziga oladi;
- yoritilganlik imkoniyatidan foydalanish tavsiya etiladi - yuqori va pastga yaproqlari rasmlari chizgi beriladi, ortga - uning qiyofaliligini ifodalaydi;
- aksli tusni qo'llash tavsiya etiladi qachonki, u kompozitsiyaga qo'shimcha ko'lam va ma'noli kompozitsiyani bersa hamda yorug'lik bilan ta'minlansa;

Vertikal ko'kalamzorlashtirishning eng asosiy usuli - bu, taglik sathida alohida yoki chirmashuvchan o'simliklar bilan umumiy guldonga o'rnatilgan tuvaklarni joylashtirishdir. Bunda devorga chirmashuvchan shoxlariga tirmashib oluvchi dekorativ shiplarga yoki turga mahkamlash mumkin.

Yashil cho'ntakchalar. Gullarni devorda o'rnatish dekorativ va hatto juda amaliy maqbul g'oya. Shu bilan birga odatiy bo'lgan devor sathlarida uslub ko'rinishidagi cho'ntakchalardir. Mazkur cho'ntakchalar ashyosi asosan keramikadir. Bunday keramik cho'ntakchalarga dekorativ o'simliklar o'tqaziladi. O'simliklardan devorda yaratilgan kompozitsiya xayolatni yaratadi, go'yoki gullar

to'g'ridan-to'g'ri ichkarida o'sadi, ammo o'zining shakli tufayli ularda o'tqazilgan o'simliklarga bog'liq turli kompozitsiyalar yaratib birlashishi mumkin.

Ushbu cho'ntaklardan foydalanish usullaridan biri: ularni qishki bog' muhitidagi devorga o'rnatib, u yerda pryaniye o'tlarini va lianalarini tirmashtirib ko'rkam kompozitsiya yaratish mumkin. Qishki bog' muhitida bundayin usullarning keng qo'llanilishi juda funktsionallidir.

“Dabl” usuli. “Dabl” usuli (inglizchadan double - ikkitalik) - bu qishki bog'larda toza oqimlarni keltiruvchi muhitda kayfiyatni va har qaysi joyni umumiylikni ma'qullovchi oxirgi urflik g'oyasidir. Hozirgi kunda dunyoda qishki bog' o'simliklarini va dizaynini oxirgi yevropacha intilishlaridan biri birxil turdagi ikki o'simlik kompozitsiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Bunday kompozitsiyalarda aloe, xlorofitum, asleniya, shefflera, geran, diffenbaxiya va ko'pchilik boshqalari fayzli ravishda ko'rinadi.

Qishki bog'larda qo'llanilayotgan “dabl” uslubini ikki yo'nalishi mavjud:

Birinchi yo'nalish - mutloq egizak o'simliklardan foydalanish. Ular bir turda bir xil rang tusda o'lchamda va bir xil hududiy bo'lishi mumkin.

Ikkinchi yo'nalish - bir xil hududlarda va bir xil rangdagi, ammo har xil o'lchamdagi bir turli ikki guldan iborat bo'lgan: bittasi albatta juda katta, boshqasi juda kichkina(gullari o'lchamlariga mos bo'lishi, ammo bunda bitta namunada bo'lishi lozim bo'ladi. Bunda kontrastlar taajubli samaraga erishadi.

2.3 Bitiruv malakaviy ish mvzusi – “Ko'p qavatli uylar oldidagi bolalar maydonchalarini milliy uslubdagi dizayn yechimi” dizayn tavsifi

Loyihaning eng muhim qismlaridan biri bu albatta badiiy dizayn qismi hisoblanadi. Ya'ni loyihaning kompozitsion yechimi, arxitektura obyektlarining tashqi dizayni, atrofning landshaft diayni, art obyektlar, loyihamdagi instalyatsiyalar hisoblanadi. Bitiruv malakaviy ishim bolalar maydonchasi ya'ni kichik bog' loyihasi bo'lganligi sababli ko'proq daraxtlar, butalar, gular

ko`rsatilishini e`tiborga olgan holda ko`rsatib berishga harakat qildim. Mavzuyimning muhim masalasi bolalar maydonini milliy uslubda loyihalash bo`lganligi sababli asosan milliy naqshlar hususan Girex dan foydalandim. Bu ornamentni loyihamda besedkaga, kichik instalatsiyaga, osimliklarga qo`lladim.

Besedka – ustun va kolonnalardan iborat yopiq holdagi kichik hajmdagi, inshoot. Stol ustidagi o`yinlar, mutolaa qilish, dam olish uchun, va yomg`irdan saqlanish, soya qilish uchun mo`ljallangan joy. Besedkalarning materiali turli xil materiallardan masalan yog`ochdan, metallardan, alyuminiydan qilishimiz mumkin. Asosan milliy naqshlar milliy ornamentlar mavzuyimiz bo`lganligi sababli mening loyihamda yog`och va metallardan ko`p foydalanildi.

Loyihamdagi besedkalar ko`proq yog`ochdan qilingan.

Shiyponchalar va soyali ayvonlar. Dam olish joyi quyoshdan va yomg`irdan pana joy, va yana landshafti fazoviy kompozitsiyaning asosiy hajmi elementi bo`lib hisoblanadi. Ularning tashqi shakllari oddiy va ixcham yechimli, bajarish materiali va ranglari yechimi atrofni o`rab turuvchi muhit – relyeflar o`simliklar, suvlar bilan va boshqa komponentlar bilan bog`langan bo`lishi kerak. Tayyorlash uchun turli tuman materiallar qo`llanilishi mumkin, - metal, plastmassa, shisha, tosh, temirbeton, yog`och. Shiyponchalar va soyali ayvonlar turli dam olish maydonlarida, bolalar o`yin maydonchalarida, va turli dekorativ bog` loyihalarida loyihalanadi. Optimal o`lchamlar -2.5x2.5 dan 5x5 metrgacha balandligida 2.5.....3 metr. Bunday o`lchamlar bir yoki bir necha skameykalarni va stollarni qo`yishga ruxsat etiladi. Katta o`lchamdagi ayvonlar ko`proq bog` loyihalarida hovli joyli uchastkalarda qo`llaniladi.

Bu besedka ham yog`ochdan qilingan bo`lib, maydonning ikki qismiga joylashgan. Unda asosiy elementlar naqshlar Girex naqshlari qollanilgan. Bu besedka katta va kichik yoshdagilar uchun mo`ljallangan. Bundan mahalla aholisi dam olish uchun yoki kopchilik bo`lib yig`ilib suhbat qurish uchun foydalaniladi.

SKAMEYKA

Kichik me'moriy shakllarning nomenklaturasi va rekreatsion uskunalar landshaft obyektning funksional vazifasini hisobga olgan holda aniqlanadi. Kichik me'moriy shakllarning joylashtirish bevosita funksional zonalash bilan va uchastkaning arxitekturaviy – rejaviy yechim bilan bog'liq bo'lishi kerak. Kichik memoriy shakllarni ularning kompozitsion faolligi darajasini mos kelishida, kompozitsion qonunlari hisobga olgan holda joylashtirish kerak.

Landshaft obyektlarini shakllantirishda dam olish uchun mebel, skameykalarning turli tiplari, pergolalar, soyali ayvonlar, shiyponlar, o'nalar keng qo'llaniladi. .

Loyihamdagi skameykalarga yog'och va metall materiallaridan foydalanilgan. Uning estetik jihatdan boyitish uchun milliy ornamentdan foydalandim.

Instolyatsiya – zamonaviy tasviriyl san'atda: turli xil real yoki haqiqiy jismlarning yagona badiiy g'oyani umumiyashtirishdagi fazoviy hajmiy kompozitsiya instalatsiya deb ataladi. Ushbu obyektning hech qanday xususiyati bo'lmasa ham insonlarni e'tiborini tortuvchi, atrof yanada qiziqarli ko'rinish bag'ishlovchi obyekt bo'lishi lozim. Instalyatsiyalar milliy korinishda bolganligi sababli unda ornamentlardan va musulmonligimizni bildiruvchi yarim oy va yulduzlardan foydalandim.

Bugungi kunda turar joylar hududida asosiy muammolardan biri – ko'kalamzorlashtirish ishlarini ilmiy asosda tashkil etishdir.

Aholi tuar joylarida- xar hil yoshdagi bolalar mayonchasi, sport maydonchalari,kattalar uchun suhbtgoh, ko'kalamzorlashtirish – bu obodonlashtirishning asosiy vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Ko'kalamzorlashtirish ko'lami – aholi yashash madaniyatidan dalolat beradi. Demografik tadqiqotlar ko'rsatishicha, ko'kalamzorlashgan xududlarga aholi kelib muqim joylashadi, hamda bu joylardan ko'chib ketishi kamdan-kam kuzatiladi.

Demak aholi turar joy hududlarida ko'kalamzorlashtirish ishlari bilan ijobiy ta'sir o'tkazishimiz mumkin.

Atrof muhit ekologiyasi

BO'LIMI

Konsultant: Sattorov Z. M

Ma'sul rahbar: Elmurodov S.S

Loyiha qilinayotgan obyekt qurilishining atrof-muxitga ta'sirini baholash va ekologik tahlil qilish.

Loyiha qilinayotgan obyekt qurilishining atrof-muhitga ta'sirini baholashda quyidagilarni o'rganib chiqish va bajarish ta'lab etiladi:

- 1.Loyiha qilinayotgan obyekt quriladigan joyning (hududning) fiziko-geografik va iqlim sharoitlari;
- 2.Hududning ekologik holati va mavjud ta'sir etuvchi manbalar;
- 3.Hududning tuprog'i,yer osti va yer usti suv resurslari;
- 4.Hududning o'simlik va hayvonot dunyosi,aholi salomatligi;
- 5.Hududning mavjud tabiiy ekologik holatini baholash;
- 6.Loyiha yechimini va texnologik yechimning alternativ variantlarini ekologik tahlil qilish;
- 7.Obyekt qurilishida atrof-muhitga ta'sir etuvchi omillarni (kimyoviy moddalar,shovqin,tabiiy resurslardan foydalanish,qattiq chiqindilar) baholash;
- 8.Qurilish davomida va ishlab chiqarishda ro'y berishi mumkin bo'lgan avariya (halokatli) holatlarni va ularning atrof-muhitga ta'sirini tahlil qilish;
- 9.Obyekt qurilishining atrof-muxitga ta'sir etish xarakteri;

10.Obyekt qurilishining atrof-muxitga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha tadbirlar va takliflar;

11.Obyekt qurilishidan so'ng hududning ekologik xolatini oldindan taxlil qilish.

Loyiha qilinayotgan obyekt quriladigan joyning (hududning) fiziko-geografik va iqlim sharoitlari;

Loyiha qilinayotgan obyekt Ko'p qavatli uylar oldidagi bolalar maydonchalarini milliy uslubdagi dizyn yechimi

Qurilish maydoni turar joy binolari bilan chegaralangan

Iqlim sharoiti keskin kontinental. O'zbekiston iqlimi keskin o'zgaruvchan iqlimdir. Mintaqadagi kunduzgi va tungi yozgi va qishgi havo harorati keskin farqlanadi. Yillik havo harorati farqi sezilarli darajada yuqori, yanvar oyi o'rtacha harorat 6 °C gacha tushadi. Iyul oyida esa o'rtacha havo harorati +32 °C gacha ko'tariladi. Pasttekislik hududlarda yillik yog'ingarchilik miqdori 120-200 mm, cho'l hududlarida esa 1000 mm gacha yetadi. Yog'ingarchilik miqdori kam bo'lganligi sababli qishloq xo'jaligi sun'iy sug'orish tizimiga bog'liqdir.

Hududning ekologik holati va mavjud ta'sir etuvchi manbalar;

Loyiha qilinayotgan obyekt joylashadigan rayon Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumanidagi kichik mikrorayon aholisining dam olishiga ixtisoslashtirilgan.

Qurilish maydoniga yaqin korxonalar obyekt atrofida hech qanday ishlab chiqarish korxonalari mavjud emas. Faqat ta'lim muassasalari va xizmat ko'rsatish obyektlari bor bular: savdo do'konlari , kafe, umumta'lim maktab.

Undan tashqari tuproq erroziyasi, kimyoviy va mineral o'g'itlar ishlatilishi ta'sirida yerning kimyoviy ifloslanishi: kimyoviy ifloslanishi yo'q

Avtomobil transportlaridan quyidagi yoqilg'i qoldiq moddalari atmosferaga tashlanadi: loyihalananayotgan joy serqatnov transport yo'li bo'lganligi uchun ulardan chiqayotgan yoqilg'i gazlari miqdori birmuncha yuqori. Bu yerdan asosan benzin metan va propan yoqilg'ilari hisobiga avtomobillar harakatlanadi. Avtobuslar esa dizel yoqilg'isidan foydalanishadi.

Hududning tuprog'i, Yer osti va Yer usti suv resurslari;

Qurilish joyining tuprog'i: yerning eng *1,0-1,5 metri o'simlik chiqindilaridan iborat unumdor tuproq*, ikkinchi pastki qatlami *pastga tushgan sari yopishqoqligi ortib boradi*, uchinchi qatlam *mayda toshchali shag'aldan iborat*.

Yer osti suvlari *9-10 metr* chuqurlikda joylashgan. Beton va qurilish konstruksiyalariga nisbatan agressiv emas. Yer osti suvi korbanatli ichishga yaroqli, *QMQga javob beradi*. Yer osti suvlarini ichimlik uchun ishlatish mumkin.

Qurilish maydoniga yaqin joydan yer ustki suv xavzasi suniy ravishda maktab hududiga suv manbalaridan ya'ni bosim minorasi orqali sug'orish va kerakli joyda foydalanish mumkin.

Hududning o'simlik va hayvonot dunyosi, aholi salomatligi;

Yerning yuqori unumdor tuproq qismi sho'rlanmagan, kuchli erroziya kuzatilmagan.

Ko'p yillik o'simliklardan mevali daraxtlar, madaniy manzarali daraxtlar (archa, qayin, kashtan) *havoni filtrlash va mikroiklimni hosil qilish uchun bu yerga baland daraxtlar butalar gullar, tut, archa, kashtan chinor terak ekilgan*.

Qurilish rayoni aholisi salomatligi sog'likni saqlash departamenti tomonidan berilgan ma'lumotlarga muvofiq respublikamizda uchraydigan ko'pchilik kasalliklar bo'yicha foiz hisobida viloyat va respublikadagi ko'rsatkichga nisbatan ancha past, lekin ba'zi bir kasalliklar *nafas yo'llari va asab kasalliklari* bo'yicha yuqori foizga ega. Sababi *avtomobillardan chiqayotgan gazlar va shovqinlar ta'sir qiladi*.

Loyiha yechimini va texnologik yechimning alternativ variantlarini ekologik taxlil qilish;

Diplom loyihasi bo'yicha ko'p qavatli uylar oldidagi bolalar maydonchalarini milliy uslubda loyihalash rejalashtirilgan.

Obyekt bo'yicha batafsil ma'lumot loyiha qilinayotgan joy ochiq va katta bo'lib, shu hududda yashayotgan aholi bo'sh vaqtlarida qisqa dam olishi, suhbatlashishi va kichik sayr qilishiga mo'ljallangan. Bolalar maydonida suv fontanlari va unda kichik arxitekturaviy formalar, kulolchilik namunalari joylashgan. O'tirish uchun skameykalari o'rnatiladi. Bardiyorlar bilan chegaralangan maysazorlar, famovkali butalar, shoxlari tarqaluvchi buta va turli hushbo'y hid taratuvchi gullar ekiladi. Yo'laklarga beton to'shamalar yotqiziladi, havzadagi suv hududda so'lim mikroiklimni yaratadi. Daraxt va gullar havoni kislorod bilan boyitadi, kishiga estetik kuch bag'ishlaydi.

Qurilishga ishlatiladigan materiallar, elementlar, texnikalar markasi. Qurilish ishlab chiqarish texnologiyasi: sement M 400, tabiiy qayroq tosh, betonli yo'lak plitalari, suv o'tkazmaydigan sopol plitalar, betonli bardiyorlar, metal simlar (karkas uchun) izolyatsiyali elektr simlari suv quvurlari ekinlarni sug'orishga polimerli trubalar. Loyihalanayotgan joy katta maydonni egallagani sababli, qurilish va yuk tashish transportlar xizmatidan unumli foydalanishni talab etadi.

Obyekt qurilishida atrof-muhitga ta'sir etuvchi omillarni (kimyoviy moddalar,shovqin,tabiiy resurslardan foydalanish, qattiq chiqindilar) baholash;

Obyekt qurilishida atrof-muhitga ta'sir etuvchi asosiy manbalar;

-foydalaniladigan yerning ma'lum bir qismini qurilishga olish ($F_{um}=446,4 \text{ m}^2$);

-qurilish yer maydonining tabiiy holati buzilishi;

-yer qazish va montaj ishlarini bajarishda hamda kerakli materiallarni tashishda transport vositalarining ishlashi natijasida atrof-muhitga ko'p miqdorda zararli yoqilg'i qoldiq moddalari va har xil changlar tashlanadi.Undan tashqari transport vositalari shovqin manbai.

-qurilish jarayonida suv resurslaridan foydalanish,suv olish va oqava chiqazish;

-qurilishda har xil kimyoviy lok-bo'yoq moddalardan foydalanish natijasida atrof-muxitga ko'p miqdorda kimyoviy zararli moddalar tashlandi;

-qurilish davomida ko'p miqdorda qattiq chiqindilar (g'isht siniqlari,beton qoldiqlari,qurilish buyumlari qoldilari) hosil bo'ladi.

a) foydalaniladigan yer maydoni 540 m^2

b) obyekt qurilishiga va obyektidan foydalanishda olinadigan toza suv miqdorlari va oqava suvlar.

Ta'mirlanadigan bino tomonidan suv ta'minoti tarmog'idan olinadigan suv asosan ichimlik-xo'jalik,yong'inni o'chirish va xovli va ko'chalarni sanitar holatini talab darajada saqlash,daraxt va ko'kalamzorlarni sug'orish maqsadida foydalaniladi.

Foydalanishga olinadigan suvning miqdorlari bu yerdagi iste'molchilar soni va sanitar asboblari bilan jixozlanish darajasiga bog'liq va uning me'yoriy miqdorlari 1.1-jadvalda ko'rsatilgan.

Ichimlik suvi ta'mirlash davrida "**Ichki suv ta'minot**" shahar suv ta'minoti tarmog'idan keltiriladi. Qurilish tugagach bu bino ham shu tarmoqqa ulanadi.

Obyekt tomonidan foydalanishga olinadigan suvning kunlik miqdorlari

1.1-jadval

T/r	Iste'molchi	O'lchov birligi	Miqdori Litr/ sutka	Suv me'yori, l/sut	Suv sarfi, M ³ /sut
1	<i>15 kishi</i>	<u>litr/sutka</u>	<u>300</u>	<u>4500</u>	<u>4,5</u>
2	Ko'klam	<u>m³</u>	<u>8892,48</u>	<u>2667744</u>	<u>2667,7</u>
3	Daraxtzor	<u>m³</u>	<u>4446,24</u>	<u>1333872</u>	<u>1333,8</u>
6					
	Jami			4006116	4006
	Qo'shimcha sarf				
	Xammasi			4006116	4006

Qurilish davomida va ishlab chiqarishda ro'y berishi mumkin bo'lgan avariya (halokatli) holatlarni va ularning atrof-muxitga ta'sirini tahlil qilish;

Obyektning qurilishi va faoliyati davrida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan halokatli holatlar. Masalan: qum, shag'al yoki tsement tashiyotgan avtotransport vositasida nosozlik tufayli qurilish materialining to'kilishi va boshqa shunga o'xshash holatlar. Loyihalanayotgan joy katta maydon bo'lganligi uchun qurilish transportlari va yuk tashish texnikalari kuchiga tayanadi, shuning uchun ular bilan bog'liq avariya holatlari va boshqa nosozliklar kelib chiqishi mumkin. Qurilish materiallari tashishda ularni to'kilishi, asfalt yotqizishda atrofga issiq va yoqimsiz gaz tarqalishi, ekskavatorlarning harakatlanuvchi qismlarining boshqa transport yoki obyektlarga tegib ketishi va hokazo.

Obyekt qurilishining atrof-muhitga ta'sir etish xarakteri;

Bolalar maydonini barpo etilish jarayonida quyidagi salbiy ekologik ta'sirlar yuz berishi mumkin: bular mavjud bo'lgan daraxtlarni ba'zilar loyihaga to'g'ri kelmaganligi uchun kesilishi, fontan va sug'orish tizimlarini o'rnatish uchun yer qazish ishlari natijasida tuproqning changishi, qurilish materiallarining to'kilishi, qurilish jarayonidagi shovqin, plita va bardiyorlar hamda fontanni qurishda hosil bo'ladigan beton va boshqa qurilish materiallari qoldiqlari, pardoqlash jarayonida turli lok va atsetonli bo'yoqlarning hidi, payvandlash ishlarida asboblardan chiqadigan gazlar qurilishda ishlatiladigan suv nazoratsiz qolganda hududni suv bosishi va hokazo.

Obyekt qurilishining atrof-muxitga sa'lbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha tadbirlar va takliflar;

Qazish ishlarida yerning namligini hisobga olish namning kamayib ketishiga yo'l qo'ymaslik va qazish jarayonida nafas yo'llarini changdan himoyalovchi niqoblardan foydalanish, elektrdan foydalanishda xavfsizlikka rioya qilish, suvdan foydalanishda hududni suv bosib ketishiga yo'l qo'ymaslik suvlarni nazorat qiluvchi jumraklardan foydalanish, qurilish paytida avtomobillar harakatini nazorot qilish. Landshaft bunyod etilishida qo'shni binolarga hech qanday ta'sir etmaslik, ularning poydevorlari xavfsizligini hisobga olish.

Mazkur bolalar maydonining dizayn yechimini barpo etish, jihozlash, ishga tushirish va ekspluatsiya qilish paytida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- Yer ishlari olib borishda eng zamonaviy qazish usuli qo'llaniladi;
- Qurilish jarayonida ajralib chiqadigan changning miqdorini kamaytirish maqsadida tez-tez tuproq namlantirilib turiladi;
- Injenerlik kommunikatsiya tarmoqlari xizmat ko'rsatish uchun tibbiy ko'rikdan o'tgan, quduqda texnik xizmat ko'rsatish va texnika xavfsizligi qoidalarini mukammal biladigan va unga amal qiladigan yoshi 18 dan kam bo'lmagan ishchilargagina ruxsat beriladi.

Obyekt qurilishidan so'ng hududning ekologik holatini oldindan taxlil qilish;

Qurilish tugagach bolalar maydoni so'lim maskanga aylanadi, bu yerdagi suv, daraxt va butalar salqin va toza havoni yetkazib beradi. Hududda taxsil olayotgan talabalar va o'qituvchilar mazmunli dam olishlari uchun barcha sharoit bo'ladi. Manzarali daraxt va gullar kishiga estetik huzur bag'ishlaydi. Yozning issiq kunlarida ham bu yer dam olish uchun eng qulay joy hisoblanadi. Qish kunlari esa doimiy yashil butalar va archalar o'z manzarasi va go'zalligini yo'qotmaydi. maydon o'zining jozibasi va maftunkorligi bilan kishilar e'tiborini tortadi. Bu

yerdagi ekologik muhit mikroiklim eng yaxshi darajada bo'ladi. Bolalar maydoni shaharning eng chiroyli va so'lim yoz va qishda o'z go'zalligi bilan hammani chorlaydigan joylaridan biriga aylanadi.

Xulosa.

Bitiruv malakaviy ishda ko`p qavatli uylar oldidagi bolalar maydonchalarini milliy uslubdagi dizyn yechimi ko`rib chiqildi. Asosiy zonalarning xajmiy-rejaviy va badiiy yechimlari, ularning arxitekturasini rivojlantirish tendentsiyalari, tabiiy hamda sun`iy yoritish masalalari, qurilishdagi zamonaviy me`yor va qoidalar, obodonlashtirish va ko`kalamzorlashtirish me`yorlari va hokazolar qamrab olingan.

Turar joy binolarining maydonlarini landshaft loyihalash o`ziga xos xususiyatlarga ega. Bu yerda har bir fuqaro aqliy yoki jismoniy mehnat bilan kun mobaynida shug`ullanib madaniy dam olishga vaqti yetishmaydi. Shuning uchun insonlarga yaxshi muhit yaratish bu atrof-muhitni ko`kalamlar, dekorativ daraxt, butalar, gullar bilan bezash, ularning faoliyatlariga yanada jo`shqinlik kasb etgan bo`lardi. Negaki, bu yerda minglab yoshlar o`qish mobaynida har qadamda go`zallikka duch kelsa, ularning kayfiyati yanada ko`tarilib ilhom bilan yanada yaxshi loyihalar bajarishga qodir bo`ladilar.

Toshkent shahri landshaft arxitekturasining bugungi holatiga holisona baho berish, uning kelajakdagi taraqqiyotini to`g`ri belgilash uchun bu sohada qo`lga kiritilgan yutuqlar va yo`l qo`yilgan kamchiliklar tahlil qilinishi, umumlashtirilishi va tegishli xulosalar chiqarilishi kerak. Mustaqillik yillariga hali ko`p vaqt bo`lmasada, bu davrda bajarilgan bunyodkorlik ishlari, me`morchilik san`atining ilg`or yo`nalishlari va kamchiliklar aniqlanishi, tahlil qilinmog`i va xolisona baholanmog`i zarur.

Landshaft arxitekturasini qonun-qoidalaridan foydalanib, turar joy binosi atrofini yanada go`zallashtirish bu barcha bo`lajak arxitetktor va dizaynerlarning orzusi hisoblanadi.

Landshaft arxitekturasini va dizayni keyingi yillarda keng urf bo'lmog'da. Hozirda bizning diyorumizda qurilayotgan yangidan-yangi binolar atrofi, yangi bog'lar(qishki bog', yopiq bog'), park va xiyobonlar landshaft arxitektori yoki dizaynerlarsiz go'zal va tartibli ko'rinishga ega bo'lmaydi.

Yoshlarni go'zallikka oshno kishining oddiy va sinalgan yo'li ularning muhitini go'zal qilish, atrofidagi buyum, jihozlar, devorlar, muhitini ham chiroyli va mazmunli bo'lishini ta'minlash va tanlash eng muhim masala.

Tashqi va ichki muhitda foydalaniladigan foyvoralari, dekorativ havzalar, skameykalar, axlat qutilari, gultuvaklar, kechki yoritish chiroqlari, reklama qurilmalari, stendlar kabi mo'jaz arxitektura formalari hamda formovka qilingan tabiiy o'simliklar, yashil devorlar, bordyurlar, klumbalar, rabatkalar, miksborderlar, Bino va imoratlarni tabiat bilan uyg'unlashtiruvchi vositalar kishilarga huzur baxsh etadi.

Tashqi muhitni, shahar va binolar atrofi muhitini, ularning ichki muhitlariga kompozitsion jihatdan bir butunlik kashf etuvchi Landshaft arxitekturasini va Landshaft dizaynining eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Zilzila, sel, shovqin, ultra-binafsha nurlar, chang, zararli gazlar, zararli suyuqliklar bilan ishlash, qurilish, laboratoriyalarda, jazirama va garmsemi ochiq dalada, texnikalar bilan aloqadagi. ishlab-chiqarish tseklaridagi hayotiy xavfsizlik muammolari ham o'ta dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bularning barchasini xalq tili bilan aytganda ofat, falokat, xudoning qahri deb aytishadi. Ammo xalq tilida yana bir hikmat borki, "harakat qilganga xudo qam qarashadi", "ehtiyot bo'lganni xudoning o'zi asraydi", ya'ni, favqulodda vaziyatlarda odamning o'zi qanday tezkor chora-tadbirlar ko'rishni bilmasa, bu qoidalardan xabari bo'lmasa, albatta u ojiz bo'ladi. Agarda barcha favquloddagi vaziyatlarni to'g'ri tushunib, uning paydo bo'lish alomatlarini erta anglab yetib, shunga yarasha chora-tadbirlar qo'llasa, albatta o'zini katta shikastlardan asrab qoladi.

Inson ekologiyasi birgina biologik qonunlarga bo'ysunmaydi va bu qonunlarning ijtimoiy qonunlar bilan o'zaro aloqasiz uni tushunib bo'lmaydi. Bu ko'pgina sabablar bilan izohlanadi.

Birinchi sababi shundan iboratki, deb ta'kidlaydi P. N. Fedoseev,- hozirgi zamon fan-texnika inqilobi, jumladan shunga olib keladiki, insonning o'zi inson ekologiyasida turli va har doim ham oldindan bilib bo'lmaydigan o'zgarishlarni qiladi, o'z navbatida unga shu o'zgarishlardan ahamiyati kam bo'lmagan aks ta'sir ko'rsatadi. Natijada insonning bunday o'zgarishlarga moslashuvining o'tkir va ko'p jihatdan hal etilmagan muammolari paydo bo'ladi.

Inson, jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar biologik, shuningdek, ekologik negizlar asosiga emas, balki ularni o'zgartiruvchi ijtimoiy-mehnat faoliyati negizlariga quriladi. Insonning tabiatga munosabati va tabiatning insonga munosabati ijtimoiy ishlab chiqarish kuchlari, ishlab chiqarish munosabatlari va inson ishtirok etadigan anq? mehnat jarayonlari orqali ro'yobga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. A “Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch” T.: “O`zbekiston”, 2009y
2. Mirziyoyev SH.M Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz T.: “O`zbekiston”, 2017y
3. O`zbekiston respublikasining tabiatni muhofaza qilishdagi qonuni
4. O`zbekiston Respublikasining shahrsozlik kodeksi qonuni
5. O`zbekiston respublikasining atmosfera havosining muhofaza qilish to`g`risidagi qonuni
- 6.
7. O`zbekiston Respublikasining ekologik ekspertiza qonuni
8. Arxitektura darslik
9. Landshaft dizayn o`quv qo`llanma

Internet saytlari


1. www.lex.uz
2. www.kitob.uz
3. www.gov.uz
4. www.wikipedia.org





8 MAYDONCHALARINI MILLIY U YECHIMI





ТАСИ-АФ-кафедра «ЛДИ»

ОТЗЫВ

На дипломный проект Гурджиева Зиёда Муратовна
Поступившего на АФ ТАСИ в 2017 году и окончив 4 полный курс
бакалавра

в 2018 году. Дипломный проект бакалавра каф. «Ландшафтный дизайн и
интерьер» выполнен на тему: Кўп наватми уйлар оидидати
боналар майдонларининг муносиб усулбери

Во время работы над дипломным проектом выпускник Гурджиев Зиёда Муратовна

Проявил себя содобли, амбициозли, билимли
ва ишхиссамарли ага.

Дипломный проект выполнен Дипломни сенин
тушунтиришган. Боб ва
буниини мого хали тугилди.

Кафедра «ЛДИ» оценивает работу выпускника

Над дипломным проектом баллом 5.0

Зав.каф. «ЛДИ»

Руководитель ДП



Матниязов З.Э.

Эмиров С.С.